

GLOBAL MUAMMOLARNING SOTSIAL AHAMIYATI

Odinaxon Abdusamatova**Kamola Sotiboldiyeva***Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Sotsiologiya yo'nalishi 2-kurs talabalari*

Annotatsiya: *Hech birimizga sir emaski, tarix davomida va insoniyat mavjud bo'lganidan beri ijtimoiy muammolar uning bir qismiga aylandi. Vaqt o'tishi bilan ularning aksariyati rivojlanib, o'zgarib borishi natijasida butun dunyo uchun global ahamiyat kasb etayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur maqolada jahon taraqqiyoti uchun xavf solayotgan global muammolar va ularning ijtimoiy mohiyati yoritilgan. Qolaversa, muammolarning kelib chiqish sabablari hamda ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar atroflicha bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Jamiyat, insoniyat, global muammolar, ekologiya, demografiya, ochlik, resurslar, Mina Guli.*

Sotsiologiya fani butun bir jamiyatni yaxlit organizm sifatida o'rganar ekan, uning hayotidagi ijtimoiy munosabatlardan tortib, sotsial institutlar, guruhlar hamda ular duch keladigan turli darajadagi muammolarni va ana shu muammolarning kelib chiqish sabablari, yechimlarini ham tahlil qiladi. Keng ma'noda, sotsial hayotning barcha uchun zarur bo'lgan ijtimoiy munosabatlari va muammolari fanning asosida yotadi.

Umuman olganda, ijtimoiy muammolar o'zi nima?

Ularning paydo bo'lish sabablari qanday?

Sotsial muammolarga yechim topish mumkinmi?

Avvalo, ijtimoiy muammolar – bu jamiyat aziyat chekadigan va aholining ayrim tarmoqlariga boshqalaridan ko'ra ko'proq ta'sir qiladigan qiyinchiliklar. Ularning ta'siri umumbashariy hayot va taraqqiyot rivojlanishida ko'zga tashlanishi mumkin. Ijtimoiy muammolarga misol qilib, jinoyatchilik, giyohvandlik, ochlik, korrupsiya, irqiy va jinsiy kamsitish yoki qashshoqlik keltirilgan. Bugungi rivojlanish davrida ijtimoiy muammolar bashariyat hayotiga xavf solish darajasiga ko'ra, jahon hamjamiyati ta'rifida global xarakter kasb etib bormoqda. Shu sababli ularni aksariyatini global muammo sifatida tahlil qilishimiz mumkin. Jamiyatdagi muammolarning keskinlashuviga bir qator sabablarni keltirish mumkin. Eng asosiysi, sotsial-iqtisodiy, ilmiy – texnika xarakteriga ega bo'lganligidir. V.I.Vernadskiy bekorga aytmagan edikim, ya'ni “ Insoniyat hozirgi kunda qudratli geologik kuchga aylandi. Insoniyatning hozirgi kundagi faoliyati sayyoramiz tarixida hali bunchalik xavfli va qudratli kuchga aylanmagan edi “.

Biz tilga olayotgan global muammolar – urushlar, xom-ashyo, energetik resurslar, ekologiya, oziq-ovqat, demografik va eng xavfli kasalliklar, shuningdek, Orol

muammolari o'z-o'zidan paydo bo'lmagan. Ular insoniyatning faoliyati tufayli kelib chiqqan, desak xato bo'lmaydi. Misol uchun, ko'p kuzatishimiz mumkin bo'lgan oziq-ovqat muammosini tahlil qilamiz.

Ma'lumotlarga qaraganda, 2022-yilida Yevropa mamlakatlarida kuzatilgan qurg'oqchilik va Ukraina inqirozi tufayli taxminan 3mln tonna don yo'qotilgan. Qolaversa, dunyo bo'yicha 7-8 mln kishi ochlik oqibatida vafot etgan. Biz oziq-ovqat muammosi haqida so'z yuritganimizda, faqat ochlik muammosini tahlil etib qolmasdan, ortiqcha oziq-ovqat ishlab chiqarish va iste'mol qilishni qo'shishimiz ham e'tiborga molikdir. Zero, ochlikdan o'layotganlar soni, semizlik tufayli hayotdan ko'z yumayotgan insonlar sonidan kam. Qayerdagi ochlik kuzatilayotgan bo'lsa, bu tabiiy emas, siyosiy asoslarga borib taqaladi.

Yana bir global muammo – resurslar muammosi. Biz foydalanayotgan resurslarning ko'pchiligi o'zining oxirgi chegarasiga kelib qolgan. Ayrim mamlakatlarda minglab gektar hosildor yerlar karroziga uchramoqda, yirik-yirik o'rmonlar yo'q bo'lib, daryo havzalari zaharlanmoqda. Tiklab bo'lmas foydali qazilmalar – alyumin, temir, qo'rg'oshin, rux, qalayi, mis kabilar zaxirasining ozayib borayotganligi ham ayanchli oqibatlarga sabab bo'lishi tabiiy. Bulardan tashqari energetik resurslar – neft va gaz boyliklaridan foydalanish ehtiyoji ko'paymoqda. Shunga yarasha, ularning narx – navoga bo'lgan ta'sirini sezmaslik mumkin emas.

Sayyoramizdagi barchani birdek tashvishga solayotgan ekologik muammolar haqida mulohaza qilsak, ushbu jarayonlar insoniyat va nabotot olami uchun keskin zarar yetkazayotganiga guvoh bo'lamiz. O'tgan asrga nisbatan insoniyat yashash tarzi shunchalik darajada o'zgardiki, insoniyat sivilizatsiyasida hali mutlaqo kuzatilmagan global isish, turli mintaqalardagi qurg'oqchilik, suv toshqinlari qator salbiy holatlarni keltirib chiqarmoqda. Umuman olganda, insonning tabiatga aralashuvi aqlga sig'maydigan darajaga yetishga ulgurdi. “Ko'pchilik foydalanishga yaroqli suvimiz tugashini bilmaydi, 2030-yilga kelib suvga bo'lgan talab va mavjud bo'lgan suv ta'minoti orasida 40% tafovut bo'ladi. Suv muammosini hal qilish uchun bizda bor yo'g'i 15 yil bor xolos” – deydi Jahon iqtisodiyot forumi yosh global yetakchisi Mina Guli.

Bugungi davrning qaltis muammolari qatoriga demografiyani kiritish mumkin. Chunki hozirda kunda yer sharida 8mlrd aholi yashayotganini inobatga olsak, ularni oziq-ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlash muammosiga ham duch kelamiz. O'ylab ko'ring, insoniyatning 2/3 qismi oziq-ovqat tanqis mamlakatlarda hayot kechirishadi. Bu esa biz kurashayotgan global muammolarning ortishiga, iqtisodiy-ijtimoiy qo'loqlikning kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu ham o'ziga xos og'ir sotsial-siyosiy muammodir.

Yuqorida butun jamiyat ijtimoiy hayotida eng ko'p uchraydigan global muammolar haqida gapirdik. Ularning paydo bo'lishi va keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan oqibatlari to'g'risida ma'lumot berib o'tdik.

Quyida global muammolarni bartaraf etish borasida qanday yechimlar topishimiz kerakligini tahlil qilamiz:

Birinchi o'rinda, oziq-ovqat muammosini hal etish uchun jiddiy chora-tadbirlar ko'rish, muhim iste'mol tovarlari zaxirasini yaratish, eng asosiysi, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatiga innovatsiyalar va ilg'or texnologiyalarni joriy etish zaruriyati taqozo etiladi.

Ikkinchi o'rinda, yer yuzidagi tabiat saxovati birlikni, oqilona ilmiy asoslangan, uzoqqa mo'ljallangan resurslardan foydalanish jarayonini boshqarishni yo'lga qo'yishimiz lozim.

Eng muhimi, sayyorada mustahkam tinchlik, harbiy xarajatlarni kamaytirish, tinch taraqqiyot qutish, o'zaro hamkorlik, ilm-fan rivoji uchun harakat qilishimiz kerak. Foydalanayotgan resurslarimiz qanchalik qimmatli ekanligini anglasak va bizdan keyingi avlodga meros qilishimiz kerakligini his etsak, o'ylaymizki, ko'pgina salbiy holatlar yuz berishining oldini olgan bo'lamiz.

Ekologik muammolarni hal etish bo'yicha ekologik qonun talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlikni og'irlashtirish o'rinli bo'ladi. Qolaversa, ekologik xavfsizlik doirasida xalqaro hamkorlikning mustahkamlanishi hamda aholi orasida ekologik madaniyat ko'rsatkichini oshirish natijasida ekologik barqarorlikka erishishga yoxud global muammo sifatida emas, balki kichikroq ijtimoiy muammo sifatida o'rganilishiga sabab bo'lishi ehtimoldan uzoq emas. Shuni unutmaylikki, tabiatni muhofaza etish insoniyatning kelajak avlod uchun qoldirishi mumkin bo'lgan yagona va bebaho xazinasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sotsiologiya (o'quv qo'llanma) . SH.A.Ahadov. Samarqand-2007
2. Sotsiologiya. M. Qirg'izboyev. Toshkent. " Navro'z" nashriyoti -2017.
3. "Будущее человеческого общества" . Москва, 1971
4. Uz.warbletoncouncil.org.
5. Xs.uz.
6. Samdu.uz.